

ARMONGA AYLANGAN BOLALIK

Abdumo‘minova Dildora Oybek qizi

Termiz davlat universiteti O‘zbek tili va
adabiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada adib Tohir Malikning “Alvido bolalik” qissasidagi qahramonlar hayoti, turmush tashvishlari, dunyoqarashi haqida fikr yuritiladi. Qissaning bugungi kun yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni va kitobxonlik masalasi qissa qahramonlarining ma’naviyatiga nechog‘li ta’sir ko‘rsatgani ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘z: Detektiv, yetishmovchilik, jinoyat, ehtiyoj, professor, xursandchilik, e’zozlash, “Baxtli bolalik”

Inson bu yorug‘ olamga kelar ekan, hech qachon qotil, o‘g‘ri yoki jinoyatchi bo‘lishni istamaydi. Aslida noto‘g‘ri berilgan tarbiya yoki oilaviy yetishmovchilik kishini bu yo‘lga boshlaydi. Buyuk yozuvchi Tohir Malik qalamiga mansub “Alvido bolalik” qissasi detektiv asar hisoblanib, qahramonlari ham yetishmovchiliklar va ko‘ngli yarimligi sababli o‘zлari bilmagan holda jinoyat yo‘liga kirib qolishadi. Asardagi Qamar, Salim, Sanjar, Axbor, Asror obrazlari shular jumlasidandir. Bu qissani o‘qigan ko‘pchilik kitobxon Qamar obrazini salbiy deb hisoblashadi, biroq usari ham boradigan bo‘lsak, unda ham insoniylik tuyg‘ulari bor, jinoyatchi bo‘la turib jinoyatga qo‘l urmagan insonlardan ortiqroq edi.

Qamar birinchi marotaba nega qamalgan edi? Agar u asarni o‘qigan bo‘lsangiz, u kottej uylarda turadigan bolalardan eshitgan gaplariga dosh bera olmaydi. Avvaliga indamaydi, ikkinchi bor ularning pisanda gaplarini ko‘tara olmaydi va ularga musht tushirgani evaziga axloq tuzatish koloniyasiga jo‘natiladi. Agar o‘scha bolalar uni yetim deya ustidan kulishmaganida edi muammo bo‘lmazı. Ikkinci marta qamalganida esa

ayb hamma uchun mo‘tabar bo‘lgan zot ya’ni onada, Qamarning noinsof onasida edi. Axir Qamar hali voyaga yetmagan, onasi esa uning ko‘z o‘ngida begona erkak bilan “bu otangning do‘sti” deya aysh-ishrat qilib o‘tirar edi. Qamar nega u odamni o‘ldirdi? Uning maqsadi bitta, ya’ni u o‘zi ko‘rgan xiyonatni o‘sha erkakning farzandlariga ravo ko‘rmaslik edi. Aslida Qamar yomon inson emas. Uning pok niyatli ekanini Dilfuzaning otasiga yangi aravacha olish uchun bergen puli, Salim og‘ir yotib, oilasiga pul yetkaza olmagach uning nomidan ehtiyojlari uchun oilasiga pul jo‘natishi, o‘zi o‘qiyolmagach, kelajagini porlashiga ko‘zi yetmagach Asrorni professor qilish uchun hatto hofiz otasi bermagan mablag‘, e’tiborni berishidan bilish mumkin.

Asrorchi, to‘g‘ri u o‘ziga to‘q oilaning farzandi, moddiy tomondan hech narsaga muhtoj emas, aksincha, unga bular kerak ham emas edi. U shunchaki mehrga, e’tiborga va uning xohishlariga qarshi chiqmasliklariga muhtoj edi. Biroq u otasining ko‘ziga tik boqqanda shaytonni ko‘rgandek bo‘lardi. Agar maishatparast hofiz otasi unga cheklovlar qo‘ymaganida u jinoyat yo‘liga kirib, suvda cho‘kkan murda emas, balki, kuchli professor bo‘lar edi.

Bu qissaga nisbatan “Bir kami to‘lmagan dunyo” iborasini qo‘llasak bo‘ladi, ya’ni “Baxtli bolalik” inshosini yozish topshirilganda, “asar qahramonlarining hayoti, bolaligi baxtli o‘tayaptimi, yo‘qmi” shu haqida fikr yuritiladi:

Turob. U baxtlimidi? Bechora onasi afg‘ondan keltirilgan o‘g‘lining jasadini ko‘rib aqldan ozgan, otasi esa 7 bolani o‘zi boqar edi.

Manzurachi? U baxtlimidi? Otasi ketib qolgan, onasi bilan yolg‘iz yashardi, yuragi kemtik edi.

To‘g‘ri, Otaullo boy. Biroq gap pulda emas-ku. Hatto u bu pullarni o‘zi xohlagancha ishlata olmasdi ham.

Ergashchi? Bechora bola aravakash otasiga qo‘shilib oilasini pul bilan ta’minalash uchun kun-u tun ishlaydi. ”Xo‘sh bular baxtli bolalikmi? Bugungi kundagi insonlarning dunyoqarashi bilan fikrlaydigan bo‘lsak baxtli bolalik bu bolaning sog‘lom bo‘lishi, shinam uyda oila a’zolari bilan birga ovqatlanishi, ota-onasi navbatlashib ularni bog‘chaga, maktabga olib borishi, birgalashib dars tayyorlatishidir.

Biroq bu asarda deyarli hech kimning hayoti shularga yaqin emasdi. Asarda Keldiyorov obrazi ham bor bo‘lib, bu obrazni qolganlarning aksi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi ular yetishmovchilik, pulsizlik, e’tiborsizlik sabab jinoyat qilishgan bo‘lsa, Sanjar Keldiyorov mehrning ko‘pligidan bu yo‘lga kirgan edi. Otasi farzandining kelajagi uchun uni bir necha bor himoya qildi, biroq o‘z kasbining sodiq egasi mayyor Soliyevga qarshi chiqa olmadi va jazo hamma uchun muqarrar ekanligiga amin bo‘ldi. Qissani o‘qish davomida kitobxon ko‘zidan yosh sirg‘alishi hech gap emas. Sababi bu mehrga zor bolalar doimo qalbi kemtik bo‘lib yashadi. Bu asarni o‘qish kishini ayniqsa yosh avlodni oila davrasida xursandchilik bilan o‘tayotgan har bir kunini e’zozlashi, shukrona aytishi, ota-onalarni esa farzand tarbiyasida doimo sergak bo‘lishiga undaydi. Farzand hatto yosh jihatdan katta bo‘lsada ota-onasi uchun doimo bola va ularga tegishli ne’matdir. Ota-onalarimiz bu ne’matni yoshligidan payvand qilishda adashishmasliklari zarur. Zero, o‘ylamay bosilgan bиргина qadam baxthli bolalikni armonga aylantirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Tohir Malik. Nomi: «Alvido... bolalik» Nashriyot: «Yangi asr avlodi» 2019-yil.*
2. [*http://www.tohirmalik.uz>kitoblar > alvido_bolalik .*](http://www.tohirmalik.uz>kitoblar > alvido_bolalik .)